# МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

## ISAJON SULTONNING TARIXIY HIKOYALARI TEMATIKASI

***Ibragimova D.I.***
*ChDPU, "Boshlang'ich tahlim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** Isajon Sulton, tarixiy asar, tarixiy hikoya, turkiy, tabg'ach, Xun, Muqanna, Robiya Balxiy, Mahmud Qoshg'ariy.
**Ключевые слова:** Исаджан Султан, историческое произведение, исторический рассказ, тюрки, табгач, Хун, Муканна, Робия Балхи, Махмуд Кашгари.
**Key words:** Isajon Sultan, historical work, historical story, Turkish, tabgach, Xun, Muqanna, Rabiya Balkhi, Mahmud Kashgari.
**Резюме:** Ushbu tadqiqotda Isajon Sultonning moziyda yuz bergan va yozma manbalar orqali bizgacha etib kelgan hodisalar asosida yaratilgan tarixiy mavzudagi hikoyalari tadqiq etildi. Yozuvchi ijodida milodiy VI asrda yashab o'tgan turkiy va qardosh xalqlarning turmush-tarzi, Muqanna, Robiya Balxiy va Mahmud Qoshg'ariy kabi tarixiy siymolar hayotiga oid hikoyalar tarixiy biogafik usul asosida tekshirildi.
**Резюме:** В этом исследовании были исследованы рассказы Исаджана султана на историческую тему, основанные на событиях, произошедших в Мози и дошедших до нас через письменные источники. В творчестве писателя на основе исторического биографического метода исследовался быт тюркских и братских народов, живших в VI веке нашей эры, рассказы о жизни таких исторических фигур, как Муканна, Робия Балхи и Махмуд Кашгари.
**Summary:** This study examines the historical stories of Isajon Sultan, based on events that have come down to us through written sources. In the writer's work, based on the historical and biographical method, stories about the life of the Turkic and neighboring peoples who lived in the 6th century, the lives of such historical figures as Mukanna, Rabia Balkhi and Mahmud Kashgari were explored.

Tarixni badiiy asarda qayta tiriltirish jarayoni g'oyat murakkab va ilmiy-ijodiy Malaka talab etuvchi jarayondir. Millatlar va xalqlar o'z tarixini tarixchi olimlarning tadqiqotlaridan ko'ra adiblarning asarlari orqali ko'proq va yaxshiroq taniydilar. Shu ma'noda, yozuvchi ta'biri bilan aytganda, "Insoniyatning chinakam tarixini tarixchi emas, san'atkor yaratadi" .

Yozuvchi Isajon Sulton ijodining katta qismini tarixiy mavzudagi asarlar tashkil etadi. "Xalqimizning buyuk tarixi – shumerlar davridan to "Devoni lug'otit-turk"kacha, ibn Asirning "Al komil fit-tarix" asari voqealaridan "To'rt ulus tarixi" va "Shajarai tarokimaga"gacha, Amir Temur zamonasidan

bugungacha bo‘lgan voqealarning barchasi zamonaviy badiiy asarlarda aks etishi ehtiyoji” bugungi zamonaviy adabiyotning oldida turgan muhim vazifalaridan biridir.

Qadim ajdodlarimiz odamzotning kamoloti, insoniyat jamiyatining taraqqiy etishi va rivojlanishi uchun muhim namunalarni taqdim etishgan. Bu namunalar shunchaki tarixiy risolalar bo‘lmay, uzoq yillik tajriba va xulosalar asosida to‘plangan qimmatli ma’lumotlardir. Ham aniq fanlar, ham tabiiy fanlar, ham ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida bunday xayrli rang-baranglik uncha-muncha xalq tarixida uchramaydi. O‘tmishning hozirgi kun nuqtai nazaridan qayta baholanishi, - deb yozadi olim A.Kattabekov, - o‘zlashtirilishi, pirovardida, qardosh xalqlar adabiyoti falsafiy-estetik mundarijasining keskin boyishiga olib keladi .

“The Open Genomics Journal” xalqaro jurnalida e’lon qilingan “Insoniyat chorrahasida gen oqimlari: O‘zbekistonda uchraydigan insersion polimorfizmlardagi mt-DNK turli-tumanliklari” tadqiqotida Markaziy Osiyo chindan ham dunyo taraqqiyoti yo‘lidagi oltin beshik ekani o‘z isbotini topgan. Bu – haqiqatan ham, o‘ta qadimgi tarix. Shuningdek, tadqiqotlar natijasida xalqimiz sivilizatsiyadagi mavjud barcha genlar xilma-xilligiga ega ekanligi va ular orasida inson sivilizatsiyasidagi eng qadimiy genotiplar mavjudligi isbotlangan. Bu xalqimizning o‘ta qadimiy genetik o‘tmishiga urg‘u berishi bilan birga, “tirik tarixiy muzey” ekanidan ham dalolat beradi. Ya’ni, yurtimiz nafaqat siyosiy, ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega, balki o‘ta qadimiy va xilma-xil bo‘lgan insonlari bilan xalqaro miqyosda juda katta biologik boylikni o‘zida mujassam etgan. Biz bu boylikni anglashimiz, qadrlashimiz, asrab-avaylashimiz hamda undan g‘ururlanishimiz kerak. Shu sababli, eng qadimgi davrlardan to bugunimizga qadar bo‘lgan badiiy tarix yaratilishi olimlarimiz va ijodkorlarimizning qutlug‘ vazifasidir” .

Tarixiy mavzuni ilmiy asosda badiiy talqin qilish yo‘lidan borayotgan Isajon Sulton kechmish hodisalarni ikki usul bilan asarlariga olib kiradi. Birinchi usulda butun asari tarixiy voqealar asosiga qurilsa, ikkinchi usulda ijodkor asarlarining ayrim qismlarini tarixiy mavzu asosida yoritadi. Yaxlit tarixiy mavzu asosiga qurilmagan, ammo tarixiylik elementlari ishtirok etgan asarlar qatoriga “Ozod”, “Genetik”, “Boqiy darbadar” romanlarini kiritish mumkin. Bu asarlar tarkibida tarixiy mavzular mavjud bo‘lishiga qaramay, asarning asosiy syujeti tarixiylikdan ko‘ra ko‘proq xayoliy-fantastik xususiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda Isajon Sultonning moziyda yuz bergan va yozma manbalar orqali bizgacha etib kelgan hodisalar asosida yaratilgan asarlari tadqiq etiladi.

Turkiy xalqlar tarixiga oid tadqiqotlar bu qadim xalqning uzoq va shonli kechmishni boshdan o‘tkazganidan guvohlik beradi. 1969-yilda turkshunos olim Akib O‘zbek tomonidan etnik millatsevarlik tushunchasi shakllantirilib, o‘tmishda tarixning shonli zarvaraqlaridan joy olgan 6 buyuk turk imperiyasi (turkcha: 16 Büyük Türk Devleti) - ro‘yxati tuziladi. Ro‘yxatda milodda avvalgi III asrda tashkil topgan Buyuk Xun imperiyasidan boshlab o‘tgan asrning 20-yillariga qadar turli hududlarda hukm surgan turkiy imperiyalar nomlari keltiriladi. Xususan, Xun imperiyasining 4 davri – Buyuk Xun imperiyasi, G‘arbiy Xun imperiyasi, Yevropa Hun imperiyasi va Oq Hun imperiyasi ajratiladi. (1-jadval)

**O‘N OLTI BUYUK TURK IMPERIYASI**

| Ism | Asoschisi | Yashash yillari [b] |
|---|---|---|
| Buyuk Xun imperiyasi | Mete Xon | Mil. av. 220-46 y. |
| G‘arbiy Xun imperiyasi | Pune | 48-216 |
| Yevropa Hun imperiyasi | Attila | 375-469 |
| Oq Hun imperiyasi | Axshunvar | 390-577 |
| Turk xoqonligi | Bumin xoqon | 552-745 |
| Avar xoqonligi | Bayan I | 565-835 |
| Xazar xoqonligi | Tun-Yabg‘u Xon | 651-983 |
| Uyg‘ur xoqonligi | Qutlug‘ Bilga xoqon | 745-840 |
| Qoraxoniylar davlati | Bilga Qul Qodir xoqon | 840-1212 |
| G‘aznaviylar davlati | Alp-Tegin | 962-1186 yillar |
| Saljuqiylar davlati | To‘g‘rul-bey | 1040-1157 yillar |
| Xorazmshohlar davlati | Qutb ad-Din Muhammad I | 1097-1231 yillar |
| Oltin O‘rda | Batu Xon | 1236-1502 |
| Temuriylar imperiyasi | Temur | 1368-1501 |
| Mo‘g‘ullar (Boburiylar) imperiyasi | Bobur | 1526-1858 yillar |
| Usmonli imperiyasi | Usmon I | 1299-1922 yillar |

Miloddan avvalgi III asrdan milodiy VI asrgacha qudratini yo‘qotmagan, turli xalqlar va elatlar bilan birlashib, yangi nom bilan qayta oyoqqa turgan Xun imperiyasi turkiy qabilalar, xususan Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi ajdodlari hisoblanadi. Isajon Sulton hikoyalarida imperiyalarning kuchsizlangan davri – VI asrda xalqning qo‘shni qabilalar bilan janglari, mag‘lubiyat va g‘alabalar haqida so‘z boradi.

Qayd etish lozimki, Isajon Sulton tarixiy nasrining dastlabki namunalari kichik hajmli asarlar bo‘lib, ularni ijodkorning tarixiy roman yaratish uchun

tayyorgarlik jarayoni deb baholash mumkin. Muallifning tarixiy mavzudagi hikoyalari ijodining dastlabki davrlarida yozila boshlangan, turkiy qavmlar hayotiga oid dastlabki hikoyasi “Xun” (1992) deb nomlanadi. Muallif hikoya mavzusini keyinroq “Ismsiz qahramon haqida hikoya” nomli asarida ham davom ettiradi. (2-jadval)

**Isajon Sultonning kichik hajmli tarixiy asarlari**

| T/r | Asar nomi | Tavsif |
|---|---|---|
| 1 | “Xun”, 1992 | Qadimgi turkiy qabilalar – xunlar hayoti aks etadi. |
| 2 | “Tilsim lashkari yoxud Muqanna”, 1993 | Abbosiylar davrida islom tarqalishiga qarshi kurashgan va o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilgan Hoshim ibn Hakim taqdiri zamonaviy rakursda yoritiladi. |
| 3 | “Ismsiz qahramon haqida hikoya”, 2012 | Qadimgi turkiy qabilalar – xunlar hayoti hikoya qilinadi. |
| 4 | “Yog‘och kovush”, 2015 | Qadimgi xitoy qabilalarida qishloq hayoti va insonlar taqdiri, ota va qiz munosabatlari yoritiladi. |
| 5 | “Qoraqosh yulduzning siri”, 2017 | O‘zbek adabiyoti, tilshunosligi va lug‘atshunosligining davtlabki vakili Mahmud Qoshg‘ariy taqdiri qalamga olinadi. |
| 6 | “Robiya Balxiy”, 2019 | Forsiy tildagi ilk ijodkor ayol – Robiya Balxiy va uning afsonaviy ishq qissasi bayon qilinadi. |
| 7 | “Tabg‘achlar”, 2020 | Turkiy va chin qabilalaridan tarqagan va otalari turkiylar, onalari chinliklar deya e’tirof etiladigan qabila - tabg‘achlarning paydo bo‘lishi va turkiylar ustidan hukmronligi haqida hikoya qilinadi. |

Ijodkorning ushbu asarlarida turkiy, arabiy, chin va qardosh xalqlarning III asrdan to XI asr Sharq uyg‘onish davriga qadar boshdan kechirgan voqea-hodisalar mavzu qilib olinadi.

Muallif asarlari mavzusini davriy ketma-ketlikda quyidagicha tasvirlash mumkin (3-jadval):

**Isajon Sultonning tarixiy hikoyalari davriy tasnifi**

| “Tabg‘ach-lar” | “Xun” | “Ismsiz qahramon haqida hikoya” | “Yog‘och kovush” | “Tilsim lashkari yoxud Muqanna” | “Robiya Balxiy” | “Qoraqosh yulduzning siri” |
|---|---|---|---|---|---|---|
| III-IV asr, Osiyo | IV asr, Osiyo | IV asr, Osiyo | VI-VII asr, Xitoy | VIII asr, Markaziy Osiyo | X asr, Arab o‘lkasi | XI asr, Osiyo |

Muallifning tarixiy mavzudagi hikoyalari tematik jihatdan boy va rang-barang bo‘lib, unda tarixiy voqealar va buyuk tarixiy shaxslar taqdiriga oid voqealar badiiy in’ikosini topadi.

Ijodkorning “Tabg‘achlar”, “Xun”, “Ismsiz qahramon haqida hikoya” nomli asarlarida bir-biriga yaqin davrlar voqealari qalamga olinadi. Bu hikoyalarda turkiy xalqlarning qadimgi xitoy qabilalari bilan aloqalari, qabilalararo urushlar va jang-jadallar fonida oddiy xalqning turmush tarzi aks ettiriladi. “Tabg‘achlar” hikoyasi xitoy va turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy munosabatlar, turkiylarning taraqqiy etishi va kuchsizlanishi, chinliklar bilan munosabat, tabg‘ach qabilalarning turkiylar ustidan hukmronligi kabi mavzular aks etgan bo‘lib, hikoyani “Bilga xoqon” asarini yozish uchun ijodiy mashq, deb baholash mumkin. Hikoyada oilaviy munosabatlar doirasida tabg‘ach nomli xalqning paydo bo‘lishi va turkiylar ustidan hukm yuritib, Xitoy xalqiga xizmat qilishi chiroyli tarzda talqin etiladi. Muallif talqiniga ko‘ra, otasi – turk, onasi – chinlik bo‘lgan tabg‘achlar tarbiyani onalaridan olib, chin xoqoniga sadoqatli bo‘lib voyaga yetadilar.

Ijodkorning yana bir hikoyasi “Yog‘och kovush” Xitoyda Tan sulolasi hukm surgan VI-VII asrlar voqealari, uzoq xitoy qishloqlaridan birida yashovchi insonlarning turmush tarzi, orzu va intilishlari haqida so‘zlaydi. Mo‘jazgina hikoyada sharqona insoniy munosabatlar, ota va qizning bir-biriga mehr-muhabbati teran satrlarda ochib beriladi.

“Robiya Balxiy” nomli tarixiy ishq qissasi islom tarixidagi birinchi ayol shoira Robiya binti Ka’b al-Kuzdariyning qayg‘uli muhabbat tarixidan hikoya qiladi. Asarda malikaning turkiy sarkarda Bektoshga bo‘lgan muhabbati, ayriliq va ayanchli o‘lim hodisalari yoritilgan bo‘lib, muallif asarni yanada ta’sirchan qilish maqsadida Robiya Balxiyning Jamol Kamol tarjimasidagi go‘zal g‘azali bilan boyitadi.

“Qoraqosh yulduzning siri” hikoyasida o‘zbek adabiyoti, tilshunosligi hamda lug‘atshunosligining ilk vakili, qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning umrbodlik safari tafsilotlari hikoya qilinadi. Qoshg‘ariyning hukmdor avlodidan bo‘lgani va shu sabab shahzodalar ta’qibidan qochib umrini safar-sayohatlarda o‘tkazishi, doimiy yashash joyini o‘zgartirib turishga majbur bo‘lishi va kimligini oshkor qilmaslik uchun asarlarida taxallus qo‘llashi sabablari hayotiy tarzda asarda yoritiladi. Ijodkor asarni yozishda nafaqat o‘zbek, turk va rus tillaridagi manbalarni o‘rganadi, evropa olimlarining izlanishlari va xulosalaridan ham foydalanadi. Hususan, ukrain-amerikalik sharqshunos Omelyan Pritsak taxminlariga ko‘ra, Mahmud Qoshg‘ariyning hukmdorlar oilasi nazaridan chetda turish maqsadida bir joyda qo‘nim topa olmaydi .

Natijada, Xitoydan O‘rta er dengizigacha bo‘lgan masofada safar qilib, turkiy xalqlarning XI asrdagi axloqiy qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlarini, o‘ziga xos dunyoqarashini aks ettiruvchi turkiy madaniyat yodgorligi dunyoga keladi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sultonning tarixiy mavzudagi kichik hajmli asarlari mavzu va mazmun nuqtai nazaridan boy va rang-barang. Ijodkor tarixning eng qadimgi davrlari – III asrdan boshlab ikkinchi ming yillikning boshlariga qadar sodir bo‘lgan voqealarni o‘z asarlariga asos qilib oladi. Shuningdek, tarixiy shaxslardan Muqanna, Robiya Balxiy, Mahmud Qoshg‘ariy taqdiri yangicha usul va yangicha g‘oyalar asosida yoritiladi. Ushb hikoyalar Isajon Sultonning tarixiy roman yozish yo‘lidagi tajribalari bo‘lib, aksari hikoyalar keyinroq yozilgan tarixiy romanlar uchun material bo‘lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Горький М. Собр. соч., т. 27, М., 1953, стр. 33.

2. Кочубей Ю. М. Академік Омелян Пріцак і урало-алтаїстика // Сходознавство. - 2007. - № 38. - С. 6-12.

3. Қосимов Б. Салом, келажак. Каттабеков А. Тарих сабоқлари. Т.: Ғ.Ғулом, 1986. - Б. 143.

4. Mirvaliyev S. Tarixiylik va zamonaviylik, T., 1976

5. https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-xun-hikoya

6. Isajon Sulton. “Munojot”, roman va hikoyalar. “Cho‘lpon” nashriyoti, 1990-yil

7. Isajon Sulton. “Oydinbuloq“. roman va hikoyalar. G‘.G‘ulom nashriyoti, 1995-yil

8. Isajon Sulton. “Boqiy darbadar”. roman va hikoyalar, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2011-yil (ISBN 978-9943-01-654-5)